

CHET TILDA TINGLAB TUSHUNISHDAGI QIYINCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Nargiza Usmonova

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va
texnologiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya: Xorijiy tillarni o'qitishdan maqsad to'rtta nutq faoliyati turlarini rivojlantirishdan iborat. Shulardan birinchisi tinglab tushunish faoliyati bo'lib talabalar o'zga tildagi nutqni audiomatn, video va bevosita suhbatdoshi orqali tinglab tushunishi va suhbatga kirisha olishi kerak. Chet tilni o'rganayotganlar audiomatnni tinglab tushunishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu maqolada talabalarning nutqidagi tinglab tushunish bilan bog'liq qiyinchiliklarning qiyosiy tahlili ularni bartaraf etish usullari va taklif-tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, tinglab- tushunish, qiyinchiliklar, idrok qilish, audiomatn, axborot, suhbatdosh, pedagogik texnologiyalar.

ТРУДНОСТИ ВОСПРИЯТИЯ И ПОНИМАНИЯ ИНОСТРАННОЙ РЕЧИ И СПОСОБЫ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Наргиза Усмонова — магистрантка Ташкентского международного
университета финансового менеджмента и технологий

Аннотация: Целью обучения иностранным языкам является развитие четырех видов речевой деятельности. Первым из них является аудирование, при котором учащиеся должны уметь слушать и понимать речь на иностранном языке посредством аудиотекста, видео и прямого разговора с собеседником. Ученики изучающие иностранный язык, сталкиваются с рядом трудностей при аудировании и понимании аудиотекстов. В статье дается сравнительный анализ трудностей, с которыми сталкиваются студенты при восприятии устной речи на слух, а также методы их преодоления и предложения.

Ключевые слова: речь, аудирование, трудности, восприятие, аудиотекст, информация, собеседник, педагогические технологии, текст.

DIFFICULTIES IN LISTENING AND UNDERSTANDING IN A FOREIGN LANGUAGE AND METHODS OF ELIMINATING THEM

Nargiza Usmonova-Master's student of Tashkent International
University of Financial Management and Technologies

Annotation: The goal of teaching foreign languages is to develop four types of

speech activities. The first of these is listening and comprehension activities, in which students should be able to listen and understand speech in a foreign language through audio text, video and direct interlocutor and engage in conversation. Students learning a foreign language encounter a number of difficulties in listening and understanding audio text. This article presents a comparative analysis of the difficulties associated with listening and understanding in students' speech, methods for eliminating them, and suggestions and recommendations.

Keywords: speech, listening and comprehension, difficulties, perception, audio text, information, interlocutor, pedagogical technologies.

Tinglab tushunish deganda, tinglovchi tinglash orqali tovushli xabarni taniydi, idrok qiladi, tushunadi va izohlaydi, faol ongli nutqiy fikrlash faoliyati asosan tinglash orqali tushuniladi. Tinglash orqali nutqni idrok etish va tushunishni o'rganish sohasidagi muammolardan biri, bu yagona metodikaning yo'qligidir.

E.I. Passov "tinglab tushunish" va "idrok etish" tushunchalarini o'z nuqtai nazaridan farqlaydi. Tinglash - bu nutqni quloq orqali idrok etish, chet tilini o'rganishda darsning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri. Grammatika sizga tilning tuzilishini tushunish qobiliyatini beradi - bu vositadir. Lug'at ma'noni tushunish darajasini belgilaydi. Tinglash suhbatdoshingiz aytganlarini eshitishga yordam beradi [8].

Chet tillarini o'qitishning an'anaviy usullari tinglashni o'rgatish maxsus didaktik yondashuvni talab qilmaydigan va tovushlar va intonatsiya elementlarini idrok etish bilan chegaralangan nutq faoliyatining bir turi sifatida qoraladi. Amalda ma'lum bo'ladiki, nutq faoliyatining to'rt turida shakllantiriladigan barcha ko'nikmalar orasida talabalarning tinglash qobiliyatlari, qoida tariqasida, eng kam rivojlangan. Biroq, hozirgi bosqichda ular aloqa jarayonining muvaffaqiyatli oqimining zarur sharti sifatida tan olingan.

N. D. Galskova va N. I. Gezning ta'rifi bo'yicha tinglashning retseptiv turi asosan quloq yordamida tinglash kompetensiyasini rivojlantirishda o'z aksini topadi. Psixologik nuqtai nazardan nutq faoliyati va idrok etish, bu ma'lumotni idrok etish, tushunish va faol qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan murakkab retseptiv aqliy faoliyat hamda og'zaki nutqni yanada yaxshilash uchun kerakli bo'lgan nazariya hisoblanadi [7].

Tinglab tushunish shuningdek, "akustik signalni qayta ishlashda analitik-sintetik jarayon bo'lib, uning natijasi idrok etilgan axborotni tushunish" nutqni idrok etish nazariyasi nuqtai nazaridan sintez orqali tahlil qilish kerak [2].

Xorijiy filologlarni metodikasida "tinglab tushunish" tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan. Shunday qilib, S. J. Volvin va A. D. Koakli tinglashni "idrok etish, diqqatni jamlash va og'zaki va vizual stimullarning ma'nosini aniqlash jarayoni" deb

hisoblashadi [1]. M. Pedi "tinglash - bu diqqatni jamlash, idrok etish, talqin qilish, yodlash va ifodalangan (ogʻzaki va ogʻzaki boʻlmagan) soʻrovlar, muammolar va tashqi ma'lumotlarga reaksiyaning faol va dinamik jarayoni" deb hisoblaydi.

J. Rubin ham tinglashning faol xususiyatini taʼkidlab, nutq faoliyatining bu turini "faol tinglovchi hozirgi paytda nima sodir boʻlayotganini va nimani ifodalamoqchi ekanligini tushunish uchun eshitish koʻrish belgilaridan ma'lumotlarni tanlaydigan va sharhlaydigan jarayon" deb hisoblaydi [3;151]. Oʻz navbatida, G. Bak tinglash ovoqli xabarni talqin qilishning faol jarayoni ekanligini taʼkidlaydi. Tinglovchining lingvistik va ekstralingvistik bilimlariga asoslanadi [1;186].

Nutqni idrok etish mexanizmlarining ishlashi nuqtai nazaridan J. B. Kerroll tomonidan taklif qilingan tinglash taʼrifi tinglab tushunish kompetensiyasi yuzasidan qiziqish uygʻotadi. Bu tinglashni shaxsning eshitish ma'lumotlarini tushunish, tan olish, farqlash yoki eʼtiborsiz qoldirish qobiliyatini oʻz ichiga olgan harakatlar majmui sifatida tavsiflaydi. Xorijiy tadqiqotchilar shuningdek, nutqni idrok etishning fiziologik jarayoni sifatida qaraladigan "eshitish" tushunchasi bilan ishlaydi. Tadqiqotlar natijasida, tinglab tushunishni idrok etishni, tushunishga qaratilgan faol ongli nutq-fikrlash jarayoni va kiruvchi audio xabarni talqin qilish deb taʼriflaymiz. Shuningdek, tinglab tushunish turlarini tasniflovchi quyidagi mezonlarga asoslangan turli yondashuvlarni misol qilishimiz mumkin:

- tinglab tushunishning maqsadi;
- tovushli axborotni idrok etish va tushunish shartlari;
- muloqot ishtirokchilari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning xarakteri;
- tovushli axborotni idrok etish va tushunish jarayonida tinglovchining roli.

Ingliz tilini tushunishda keng tarqalgan muammolar orasida ona tilida soʻzlashuvchilarning gapirish tezligi, boshqa tillarga nisbatan talaffuzdagi farqlar va soʻzlashuv iboralari yoki mintaqaviy urgʻulardan foydalanish kiradi. Shuni ham taʼkidlash kerakki, tildagi rasmiyatchilik va roʻyxatga olishda farq qilishi mumkin, bu esa maʼlum kontekstlarda tushunish uchun qoʻshimcha harakat talab qilishi mumkin. Biroq, ogʻzaki ingliz tili bilan faol shugʻullanish va turli tinglash strategiyalarini qoʻllash orqali bu qiyinchiliklarni engib oʻtish mumkin.

Tilga oid shakliy qiyinchiliklar. Maʼnosi har xil, tovush shakli esa oʻxshash soʻzlarni tinglab tushunish qiyinchilik tugʻdiradi.

- Mazmunga doir qiyinchiliklar. Olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qayerda, kim bilan qachon boʻlishi kabi dalillarni idrok etish bobida yoki umumiy gʻoyaga taalluqli qiyinchiliklar mavjud.

- Nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchiliklar. Bulardan nutq tezligi, ohangi va mehanik yozilgan audiomatnning murakkabligi. Shu bilan birga audiomatnni bir marta idrok etish, notanish talabani tinglash ham tinglab tushunishda qiyinchilik tugʻdirishi mumkin.

- Nutq shakliga oid qiyinchiliklar. Dialog nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa uzun jumalarni eshitish saqlash o'quvchi uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi.

- Tilshunoslik nuqtaviy nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar. Ular lisoniy-leksik, grammatik va fonetik qiyinchiliklar.

- Audiomatn tuzulishiga oid qiyinchiliklar. Audiomatnning tuzulishi ham qiyinchiliklarga olib kelishi aniqlangan. Chunki bayon etilayotgan axborotni ilg'ab olishga uning bevosita dahldor.

O'quvchi tinglab tushunishida duch keladigan qiyinchiliklarni e'tirof etishdan maqsad ularning oldini olish choralarini ko'rishdir. Qiyinchiliklar mehnat va vaqt talab qiladi, maxsus mashqlar bajarish jaruratini tug'diradi. Qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish yo'li bilan ta'lim jarayonini jadallashtirish va o'qitishning eng optimal metodikasini ishlab chiqarishga muvaffaq bo'linadi.

Olimlar tomonidan quyidagi muammolar aniqlangan:

Yozib olingan materiallarning sifati. Ba'zan talabalar sifatli bo'lmagan audiomatndan yoki ovoz hira olingan materiallardan foydalanadilar. Ovoz tizimining sifati o'quvchilarning tinglab tushunishlariga ta'sir qilishi mumkin;

Madaniy farqlar. Talabalar tushunishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan madaniy til qobiliyatlari bilan tanish bo'lishi kerak. Agar tinglash vazifasi butunlay boshqa madaniy materiallarni o'z ichiga olsa, o'quvchilar tushunishlarida muhim muammolarga duch kelishlari mumkin. O'qituvchilar tinglashdan oldingi harakatlar haqida asosiy bilimlarni berishlari kerak.

Notanish lug'at. Tinglash uchun berilgan maxsus matnlarida ma'lum so'zlar kop bo'lsa, o'quvchilar ularga yaqinlashishlari juda oson bo'ladi. Agar talabalar so'zlarning ma'nosini bilsalar, bu ularning qiziqishi va motivatsiyasini uyg'otishi va o'quvchilarning tinglash qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tinglashning uzunligi va tezligi. Talabalar uzoq qismlarni tinglashlari va barcha ma'lumotlarni eslab qolishlari muhim rol o'ynashi mumkin.

Tinglash qobiliyati yuzma-yuz muloqot orqali rivojlanadi. Yuzma-yuz muloqot ma'noni tinglash qobiliyatini rivojlantiradi. Tinglash ma'noga e'tibor qaratish va maqsadli tilda yangi va muhim tarkibni o'rganishga harakat qilish orqali rivojlanadi. Tinglash qobiliyati tushunish faoliyati ustida ishlash orqali rivojlanadi. Tinglashning aniq maqsadlariga e'tibor qaratish orqali o'quvchilar o'zlarining sa'yharakatlari va qobiliyatlarini baholashlari mumkin. Aniq belgilangan tushunish faoliyati bilan talabalar erishganlarini baholash va qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tinglash aniqlikka e'tibor berish va shaklni tahlil qilish orqali rivojlanadi.

Oliy ta'limda chet tillarini o'rgatish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish eng muhim masalalardan biridir. Xorijiy tillarni zamon talabiga mos ravishda o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda

axborot manbalari, jihozlari, audiozual vositalar, audio va video materiallardan keng foydalanish talabalarning tinglab tushunishga oid bilimlarini mustahkamlashda muhim o'rinni egallaydi.

Tinglab tushunishni o'rgatishda axborot texnologiyalari bilan bir qatorda pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs - munozara, davra nutqning mazmunini tushuntirish suhbat muhim rol o'ynaydi. Chet tilida nutq mazmunini voqeylikka va mantiqiy tushunish muommosi munosabati bilan o'qituvchilarning egallashlari kerak bo'lgan quyidagi ko'nikmalarni aniqlash mumkin. Nutqda bayon etilgan g'oyani ko'rsata bilish, asosiyni ikkinchi darajalidan farq qila olish, ayrim tushunilmagan joylarga qaramay nutqning mazmunini tushuntirish.

Mazmun yoki bayon etilishi qiyin bo'lgan matnni ikki yoki uch marta eshitish. Har gal tinglagandan keyin mazmunini dalillar va detallar bilan gapirib berish. Bog'lik matnni normal tezlikda eshitish. tinglab tushunish o'qish bilan yanada bog'liqdir. Tinglab tushunish o'qish bilan moslangan bo'lishi mumkin. Tinglab tushunish yuqori bosqich talabalarida ko'proq rivojlanishi mumkin. Ayni bir vaqtda turli xil qiziq material ma'lum qilish imkonini beradi.

Tinglab tushunishni rivojlantirishda quyidagilar usullar muhim o'rin egallaydi:

- Badiiy asar, doklad, suhbat, monolog, dialogni eshitish, axborot, radioxabar va shu kabilarni tinglash

- O'rganilayotgan tilda dublyaj qilingan kinofilmlarni ko'rish.

- Chet tili mutaxassisi tomonidan o'qilgan xorijiy tildagi matnni eshitish

- Ko'rgan kinofilmga sharh berish, so'zlab berish.

Xulosa o'rnida, tinglab tushunishni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi taklif tavsiyalarni keltiramiz:

1. Qulog'ingizni ingliz tilida so'zlashuvchilar talaffuziga o'rgatishda mazkur tilda so'zlashuvchi mamlakatlardan kelgan ma'ruzachilar ishtirokidagi audio yozuvlarni tinglash yoki videolarni tomosha qilishdan boshlang. Har bir urg'uning aniq talaffuz naqshlari, intonatsiyasi va ritmiga e'tibor bering. Muntazam tinglash mashqlari, masalan, qisqa parchalarni transkripsiya qilish yoki turli urg'uli ma'ruzachilardan keyin takrorlash turli xil ingliz urg'ularini aniqlash va tushunish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

2. Ingliz tilini tushunishingizni yaxshilashga yordam beradigan bir qancha usullar mavjud. Samarali usullardan biri bu faol tinglash bo'lib, unda siz alohida so'zlarni ochishga harakat qilishdan ko'ra, aytilayotgan gapning mazmuni va ma'nosiga e'tibor qaratasiz. Eslatmalar olish, eshitganlaringizni umumlashtirish va nuqni mashq qilish (eshitganingizda so'z yoki jummalarni takrorlash) ham tushunishni yaxshilaydi. Bundan tashqari, kontekstga, tana tiliga va vizual belgilarga e'tibor berish tushunishga yordam beradigan qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

3. Ingliz tilini tinglash - soʻz boyligingizni kengaytirishning ajoyib usuli. Notanish soʻz yoki iboralarga duch kelganingizda, ularni yozib oling va keyinroq ularning maʼnosini qidiring. Yangi soʻzlarning maʼnosini aniqlash uchun kontekstli maslahatlardan foydalanish zarur, shuningdek, lugʻat haqidagi tushunchangizni yanada oʻrganish va mustahkamlash uchun inglizcha - oʻzbekcha lugʻatlar yoki til oʻrganish ilovalari kabi onlayn resurslardan foydalanishingiz mumkin. Bundan tashqari, yangi soʻzlarni oʻzingizning nutq va yozish amaliyotingizga faol kiritish sizning oʻrganishingizni mustahkamlaydi.

4. Ingliz tilini tinglashda har bir soʻzni tushunish shart emas. Ona tilida soʻzlashuvchilar koʻpincha idiomatik iboralar, jargonlar yoki tabiiy tezlikda gapirishadi, bu har bir soʻzni quloqda ushlashni qiyinlashtiradi. Buning oʻrniga, asosiy fikrlarni, asosiy iboralarni va suhbatning umumiy mazmunini tushunishga eʼtibor qarating. Ingliz tilini mashq qilishda davom etsangiz va lugʻatni tushunish va tanib olish qobiliyatingiz yaxshilanadi, bu sizga tushunishdagi boʻshliqlarni toʻldirishga imkon beradi

REFERENCES

1. Rustamova M.U.” Tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar va ularning yechimlari” Toshkent 2022.
2. Tadjiyeva M.D. “ Nutqni tinglab tushunishni oʻrgatish va nutq mashqlarni taxlil qilish “Toshkent 2021
3. Volvin S.J. va Koakli A.D. 1993-1996. 35, Tinglab tushunish malakasining ahamiyati. British Journal of Education.
4. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: Учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений / Н. Д. Гальскова, Н. И. Гез. – 3-е изд., стер. – М.: Академия, 2006. – 336 с.
5. Пассов Е. И. Программа – концепция коммуникативного иноязычного образования. М. :Просвещение, 2000.